

# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND  
FILIALI**



**“JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA XORIJIY TAJRIBALAR”  
MODULI**

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim  
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**P.f.n. Professor. H.T.Rafiyev**

**1-MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLAR  
TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA  
SPORTNI TASHKIL ETISH**

**REJA:**

- 1. Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi.**
- 2. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.**



## **XORIJIY MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI**

Bugun zamonaviy jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya va sport), soha sifatida dunyoning barcha mamlakatlarida yuksalib borishi, o'zining isbotini topmoqda. Shu bilan bir qatorda har bir mamlakatda, ayniqsa rivojlangan AQSh, Rossiya, Xitoy, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Frantsiya va b. mamlakatlarda soha bo'yicha juda katta tajribalar to'planib bormoqda. Ularni o'rganish, qiyoslash, ba'zilaridan andozalar olish mamlakatimizda ham jismoniy madaniyat sohasini zamonaviy darajada rivojlantirib, yanada yuksaltirishga yordam beradi. Shuning uchun ham jismoniy madaniyat mutaxassislarining malakasini oshirishda, ularga jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha, xorijiy tajribalar to'g'risida ma'lumotlar berish zarur. Bu jismoniy madaniyat sohasi mutahassislariga o'z faoliyatlari jarayonlariga ijobiy yondashib, yangicha munosabatda bo'lishga o'z ta'sirini ko'rsatishi aniq.

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari, hamda xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimiga katta e'tibor berilmoqda.

**ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-  
metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va  
ularning moddiy-texnik asosini yaratish  
hamda ularning moliyaviy  
ko'rsatkichlarini mustahkamlashga**

**bo'lajak mutaxassislikka yaroqli  
o'quvchi-yoshlarni tayyorlash va ular  
orasidan sohaga yuqori iqtidorlilarni  
saralab olish tizimiga va h.k.**

**professional ta'lim tizimiga eng  
yuqori malakali professor  
o'qituvchilarni va mutaxassislarni  
jalb etishga**

**Olib borilgan kuzatishlar  
AQSh, Germaniya, Yaponiya,  
Frantsiya va boshqa sanoati  
hamda intellektual bilimlari  
rivojlangan mamlakatlarning  
tajribasi shuni ko'rsatib  
turibdiki, yuqori malakali va  
raqobatbardosh kadrlar  
tayyorlash, asosan,  
quyidagilarga bog'liq bo'lar  
ekan**

**kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini  
va ob'yektiv nazorat tizimini qo'llashga**

**o'quv jarayonini  
informatizatsiyalash va  
komp'yuterlashtirishga**

## Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda jismoniy madaniyat bo'yicha kadrlar tayorlash tizimi bilan tanishamiz. (Yaponiya misolida)

**Har yili  
Yaponiya  
oliy o'quv  
yurtlarida 40  
sport turi  
bo'yicha 500  
dan ortiq  
murabbiylar  
tayyorlanadi.**

Tokio jismoniy tarbiya institutida 120 kishi faqat gimnastika bo'yicha ixtisoslashgan

Ayniqsa, gimnastika va har xil yakka kurash turlari bo'yicha yaponiyalik murabbiylar ko'plab mamlakatlarda juda qadrlanadi va tezda ishga taklif qilinadi.

Yaponiya jismoniy tarbiya tizimida-xalq salomatligi milliy g'oyaning bir qismi hisoblanadi. Yaponiyada yosh avlodning jismoniy tarbiyasiga nihoyatda katta e'tibor beriladi.

► Mamlakatdagi barcha sport inshootlarining 90 foizi maktablarga, universitetlarga va xususiy kompaniyalarga tegishli. Shunday qilib, maktab va universitetni bitirganidan soʻng, yaponiyaliklarning aksariyati sport bilan shugʻullanadi. Hozirgi kunda Yaponiyada 26 mingdan ziyod jamoat sporti obʻyekti mavjud, biroq golf maydonlari, tennis kortlari, suzish havzalari va sport klublari egalari gullab-yashnayapti. Ushbu sport inshootlaridan foydalanish koʻplab yapon ishchilariga tegishli boʻlmagan yuqori harajatlarga bogʻliq. Yaponiya aholisining atigi 2 foizi sport klublari tarkibiga kiradi. Mustaqil klublar juda kam. Ularning koʻpchiligi - maktablarda, universitetlarda va xususiy firmalarda. Qolgan klublar esa faqatgina 5% ni tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, Yaponiyada katta sport kuchi mavjud.

## 2. Xitoy jismoniy tarbiya tizimi.

Xitoyning har bir Universitetida jismoniy madaniyat fakultetlari mavjud. Jismoniy madaniyat darslarining o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. E’tiboringizni Shanxay shahridagi mashxur universitetlardan biri hisoblanmish SISU universitetiga qaratamiz. Yuqorida takidlanganidek, ushbu universitetda ham jismoniy madaniyat fakultetida jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e’tibor qaratilgan.



Pekin sport universiteti (北京体育大学) - bu davlat ahamiyatiga molik davlat universiteti bo'lib, sport va ilmiy fanlar bo'yicha o'qitishni ta'minlaydi va Xitoy poytaxtida joylashgan. Universitet 1953 yilda vujudga kelgan va ilgari Markaziy jismoniy tarbiya instituti, keyinchalik Pekin jismoniy tarbiya instituti nomini olgan. 1960 yilda XXR Davlat Kengashiga mamlakatdagi strategik universitet maqomi berildi. Bugungi kunga kelib, universitet "Xitoyning asosiy milliy universitetlari" guruhining bir qismi bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri Xitoy Xalq Respublikasi sport bosh boshqarmasiga bo'ysunadi. Bundan tashqari, ushbu universitet XXRning olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha xalqaro miqyosda qabul qilingan eng muhim va tegishli bo'lgan 100 ta muhim loyihaning konsortsiumi bo'lgan, milliy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun elita mutaxassislarini tayyorlashga mas'ul bo'lgan "211" loyihasiga kiritilgan.



# Pekin sport universiteti (北京体育大学)



Pekin sport universiteti yildan-yilga Xitoyning tegishli yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlari orasida birinchi oʻrinni egallab kelmoqda va dunyodagi eng yaxshi sport institutlari roʻyxatida. Tashkil etilgan vaqtdan 2015 yilgacha universitet oʻqituvchilari va talabalari Olimpiada oʻyinlarida jami 73 ta oltin medallarni Xitoyga olib kelishganini aytish kifoya. Asosiy kampus Xaydianning poytaxt kvartalida joylashgan boʻlib, qariyb 1400 gektar maydonni egallaydi. Har yili bu yerda 14000 nafar talaba va aspirant tahsil oladi. 34 mamlakatdagi 79 ta ilmiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalari oʻrnatilgan.

**Hozirgi kunda Pekin sport universiteti tarkibida sakkizta ixtisoslashtirilgan maktab va beshta bo'lim mavjud:**

**o'rta maktab**

**Menejment kolleji**

**Jismoniy tarbiya kolleji**

**Sport fanlari kolleji**

**Sport murabbiylik kolleji**

**Uzluksiz ta'lim kolleji**

**Ushu jang san'atlari kolleji**

**Xalqaro ta'lim kolleji**

**Sport jurnalistikasi bo‘limi**

**Sport va san’at bo‘limi**

**Axborotlashtirish va aloqa  
bo‘limi**

**Sport reabilitatsiyasi  
bo‘limi**

**Chet tillari kafedrası**

**ommaviy sport bo‘limi**

**Sogʻlom turmush tarzini taʼminlash muammosi dolzarb boʻlib qolmoqda. Hayotning barcha qatlamlarining sport infratuzilmasidan teng foydalanishi, yuqori mahoratli sportchilarning tayyorgarligini oshirish zarurati sinf va sport zaxiralari, shuningdek tashkiliy ishlarni takomillashtirish, (boshqaruv, kadrlar, ilmiy va uslubiy, biotibbiyot sport faoliyati, jismoniy tarbiya va sportni targʻib qilish va boshqalar.)jismoniy tarbiya va sportda yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. (Bu masalada, oʻzbekistonda jismoniy madaniyat boʻyicha kadr tayyorlash tizimini qisqa taxlil qilish oʻrinli).**

## 1.2. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Dastur asosida keng ko'lamli o'quv ishlari, belgilangan talab muhiti, talabalarning ijodiy va ish qobiliyatlari hamda mustaqil ishlarni tashkil etish belgilab quyilgan. Jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish asosida talabalarni qo'llab-quvvatlash va ko'nikmalarni rivojlantirish dasturda belgilab olingan.

Ushbu masalani Amerika qo'shma shtatlari jismoniy tarbiya tizimi misolida ko'rib chiqamiz.

1987 yilning dekabr oyida AQShning Senati jismoniy madaniyat masalalari bo'yicha qabul qilgan rezolyutsiyasida, AQSh Senati mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga boshlang'ich maktablari o'quv rejalariga har kungi jismoniy madaniyat bo'yicha mashg'ulotlar kiritishni tavsiya etgan. Mutaxassislar fikricha o'rta va yuqori sinflarda 1 soatdan jismoniy madaniyat o'tkazilishi lozim. Biroq hozirda 40% amerika maktablarida mashg'ulotlar har kuni o'tkazilmayapti.

Rezolyutsiaga muvofiq bolalar bog'chasidan maktabning 12 sinfgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun yangi dasturi ishlab chiqildi. Bu **“physical best”** (“jismoniy kamolot”) nomli yangi dastur 5 asosiy bo'limlardan ya`ni:

**“Aerob chidamlilik”**

**“Mushak chidamliligi”**

**“Egiluvchanlik”**

**“mushak kuchi”**

**“Garmonik (hamohang) Jismoniy rivojlanish”**

Dastur individual yondashuv, o'quv materialining doimiy yangilanishi va o'quvchilar faolligini oshirish tamoillari asosida tuzilgan.



AQShda o‘quv reja va dastirlar asosidagi akademik mashg‘ulotlardan tashqari, maktab sportiga ham katta e‘tibor berilmoqda. Bu ishlarni maktab sport klublari yoki ota-onalar ko‘mitasi boshchiligidagi tashabbuskor guruxlar ammalga oshirishadi. “Sports Illustrated” jurnali malumotlariga ko‘ra AQShda ana shunday sport kulublari soni 25 mingga yetadi, ya’ni, ushbu klublar deyarli barcha maktablarda tashkil etilgan.

Jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan bu ishlar natijasida, AQShning o‘rta maktablari hayotida maktablararo sport musobaqalari tizimi vujudga kelib, ushbu musobaqalar OTM mutaxasislari va professional sportchilarning doimiy nazorati ostida o‘tkaziladi.




1978 yili “AQShning xavaskorlik sporti haqida”gi qonun qabul qilingan edi.

Qonunning asosiy maqsadlari quidagicha ifoda etilgan: “Fuqarolarning havaskorlik sporti bilan yanada kengroq ishtirok etishlarini rag‘batlantirish, AQSh Olimpiya qo‘mitasining mamlakatdagi havaskorlik sporti faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida vakolatlarini kengaytirish, xavaskor-sportchilar huquqini himoya qilish, biron-bir sport turini boshqarish va tashkil yetish xuquqini eng nufuzli sport tashkilotlari, federatsiyalarga berishni boshqaruvchi mexanizimni tuzish”.

Sog‘lomlashtiruvchi faoliyatning eng sevimli turlari-turizm, piyoda yurish, eshkak eshish, ov qilish va baliq tutishdir. Bularning barchasidan o‘yin-qulgu va mashg‘ulot sifatida ommaviy tarzda foydalaniladi.

Jismoniy madaniyat va sport soxasiga jalb kilish bolalik yoshidan boshlanadi. Amerika shaxarlarining xar bir mikrorayonlarida (kichik aholi yashash xududlari bevosita uylarga yaqin joylarda shahar kengashlariga va xususiy xujaliklarga tegishli ko‘pgina sport inshootlari mavjud bo‘lib, yoshlarni sportga jalb qilishda ulardan keng foydalaniladi.

**AQSh maktablarida ta'lim tizimi biznikidan sezilarli darajada farq qiladi. AQSh maktablarida talim tizimi 3 bosqichda amalga oshiriladi:**





Jisoniy madaniyat darslari majburiy dasturga 14 yoshdan, ya'ni yuqori maktabdan boshlanadi. **Amerika maktablarida o'rtacha har oltinchi dars jismoniy madaniyat darsidir.** Darslar ayni bir sport turidan iborat mashg'ulotlarni nazarda tutmaydi. Bunday darslarning asosiy maqsadi-o'z salomatligini mustahkamlash va umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishdir. Majburiy darslar yuqori maktabning dastlabgi 2 yil davom etadi, undan keyingina o'quvchilar umumiy jismoniy tayyorgarlik dasturi asosida ta'lim olishni yoki maktab taklif etadigan biron-bir sport turi bilan shug'ullanishni tanlashlari mumkin. o'quvchilarga shug'ullanish uchun taklif etiladigan sport turlarini maktab mamuriyati belgilaydi. Deyarli har bir maktabda 20 dan ziyod sport bo'limlari mavjud, masalan: amerika futboli, sokker (yevropa futboli), basketbol, voleybol, beysbol, yengil atletika, golf, tennis va x.k. AQSh maktablarida majburiy tarzda, barcha sport turlaridan o'g'il va qiz bolalardan iborat jamoalar tuziladi, amerika futboli bundan istisno.

-



Jismoniy tarbiyaning bunday tizimini ta'minlash uchun ko'p sonli o'qituvchi va murabbiylar talab etiladi. o'rta hisobda maktablarda o'g'il va qiz bolalar bilan aloxida shug'illanadigan 10ga yaqin umumiy jismoniy tayyorgarlik o'qituvchilari va maktabda mavjud barcha sport turlari bo'yicha murabbiylar faoliyat yuritadilar.

Har bir shtatda maktablararo federatsiyalar mavjud bo'lib, ular musobaqa qoidalari va nizomlarini ishlab chiqishadi, jamoalarni divizionga bo'lishadi va h.k.

Amerika maktablarida, yil davomida, har bir sport turi uchun qat'iy chegaralangan muddat ajratilgan. Masalan; amerika futboli bilan 15 avgustdan 31 oktyabrgacha shug'ullanishadi. Agar maktab jamoasi pleyoffga chiqsa, ularga yana bir oy shug'ullanishga ruxsat etiladi. Basketbol bilan noyabirdan martgacha, voleybol bilan martdan maygacha shug'ullanishadi. Shu tarzda maktab bollarni bir sport turi bilan shug'ullanishga majburlamaydi. o'quvchilarga o'zlarini turli sport turlarida sinab ko'rish imkoniyati beriladi.

Boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari ham sport bilan shug'ullanishadi. Biroq maktabdagi majburiy darslarda emas, ota-onalar tashkil etadigan sport bo'limlarida shug'ullanishadi. Shunday qilib, bolalar ko'ngil ochish uchun sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishadi va o'qituvchilar oldida hech qanday majburiyatga ega bo'lishmaydi, chunki ushbu mashg'ulotlar uchun baxo qo'yilmaydi.

Maktabni tugatgach bitiruvchilar kollej yoki universitetlarga o'qishga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Abituriyentda sport toifasining mavjudligi, unga kolledj yoki universitetga kirishda va ta'lim grantlarini olishda sport yutuqlariga ega bo'lmagan abituriyentlarga nisbatan shubxasiz ustunlik beradi.

AQSh maktablarida, jismoniy madaniyat darslaridan tashqari, 1986 yildan beri "Prezident chaqirig'i" nomli maxsus majburiy dasturlar ko'llanilib, 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy tayyorgarligi bo'yicha testlar asosida amalga oshiriladi.

**“Prezident  
chaqirig‘i”  
dasturi 5  
mashqni o‘z  
ichiga olgan:**

1 milya (1 milya = 1609  
metrga teng) yugurish

4x39 futga (39fut =  
11,8872 metrga teng)  
mokusimon yugurish

turnikda tortilish

yotgan xolda tanani  
bukib yozish

oldinga egilish

AQSh universitetlarida jismoniy  
madaniyat va sport faoliyatining  
ikki yo‘nalishini farqlash lozim

Birinchi yo‘nalish – talabalar shaxarchasi  
xududida talabalar orasida jismoniy  
madaniyat va sog‘lomlashtiruvchi ishlarni  
olib borish

Ikkinchi yo‘nalish – universitet  
jamoalarini sport turlari bo‘icha, o‘z  
universitetlari sharafini musobaqalarda  
himoya qilish



AQShda har bir talaba ta'lim olishini o'zining hisobidan amalga oshiradi. Xarajatlar ro'yxatida jismoniy sog'lomlashtirish uchun ham to'lov belgilangan. Mashg'ulotlar uchun to'lov bir oz farq qilsada, bir semestir uchun 15 soatni, ya'ni, har bir talabadan 60 \$ tashkil etadi va bu talabalarga sutkasiga 24 soat, barcha tryonajerlar, sport inshootlari, suzish havzalari, sport maydonlari va maydonchalardan foydalanish, turli sport to'garaklari faoliyati va musobaqalarda ishtirok etish imkonini beradi. o'qituvchi va xodimlar jismoniy sog'lomlashtirish markazlaridan bepul foydalanishadi.

Talabalarning musobaqalari televideniye orqali translyatsiya qilinadi, bu esa nafaqat jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirishga, balkim murabbiy va homiylarga iqtidorli sportchilarni aniqlashga yordam beradi.

AQShning sport ob'yektlari bilan ta'minlanganlik darajasi juda ham yuqoridir. Masalan: Dallas va Chikago shaharlarida ortiqcha vazndan aziyat chekayotkan insonlar uchun klublar o'z faoliyatini boshlashgan. Bunday klublarga faqatgina o'zining normal vaznidan 23 kilogram ortiq insonlarga kirishi mumkin. *Bunday klublarning asosiy g'oyasi quydagicha – semiz insonlarga oddiy klublarga yoki suv havzalariga borish ruxiy jixatdan yengil bo'lmaydi*, maxsuslashtirilgan kulublarda esa ular bunday muammolarga duch kelishmaydi. Alohida klublar mavjudki u yerda faqatgina ayollar yoki nafaqaxo'rlar shug'ullanishadi.



Abonementlar narxi mayda xizmatchining 1-2 soatlik xizmat xaqiga qiyoslash mumkin, ya'ni, fitnes klublar mamlakatning barcha aholisi uchun hamyonbopdir.

Sog'lom turmush tarzini va jismoniy faollikni tashviqot qilish yetarlicha keng rivojlangan. Sport bilan mamlakat aholisining aksar ko'pchiligi shug'ullanmoqda.

Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti, boy chet el va milliy tajribalar, tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish, turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Endi, turli davlatlarning umum ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining haftalik soatlari hajmini ko'rib chiqamiz.

Умумтаълим мактабларида jismoniy tarbiya fani darslarini ўqitish бўйича халқаро тажрибалар

№ к/р	Хорижий давлатлар	Жисмоний тарбия фани бўйича haftalik ўқув соат	
		Бошланғич таълим синфлар учун	Асосий ва ўрта таълим синфлари учун
1.	Буюк Британия	6 соатгача	6 соатгача
2.	Германия	1-синфда ҳар кўни	3+2
3.	Италия	6 соатгача	6 соатгача
4.	Франция	6 соатгача	3-4
5.	АҚШ	6 соатгача	6 соатгача
6.	Канада	6 соатгача	6 соатгача
7.	Япония	3	3
8.	Хитой	7 соатгача	7 соатгача
9.	Финляндия	6 соатгача	6 соатгача
10.	Жунакий Корея	6 соатгача	6 соатгача
11.	Россия	3	3
12.	Қозғистон	3	3
13.	Қргизистон	3	3
14.	Тожикистон	3	3
15.	Туркманстон	3	3
16.	Прибалтика давлатлари	4	4
17.	Молдова	3-4	3-4
18.	Армения	3	3
19.	Украина	3	3
20.	Ўзбекистон	2	2

Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳамда Халқ таълими вазирлиги томонидан умумий ўрта таълим мактаблари учун "Жисмоний тарбия фани" бўйича ишлаб чиқилган ўқув дастурлари ҳақида қисқача МАЪЛУМОТНОМА

Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги томонидан умумий ўрта таълим муассасалари I-XI синф ўқувчиларичун жисмоний тарбия бўйича комплекс дастури	Халқ таълими вазирлиги томонидан умумий ўрта таълимнинг амалий фан блоки бўйича давлат стандарти ва ўқув дастури (Жисмоний тарбия 1-11 синф)
Умумтаълим мактабларининг I-XI синфлар ўқувчилари учун жисмоний тарбия бўйича мажмуавий дастур (бундан буён - Дастур) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 5-мартдаги «Жисмоний маданият ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чоралари тўғрисида»ги 5368-сонли ва 2018 йил 5 сентябрдаги «Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 5538-сонли Фармонлари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси ижросини бажариш мақсадида, Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги, «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонунларига ва Умумий ўрта таълимнинг Давлат умумтаълим стандартига (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017-йил 15-апрелдаги 187-сонли Қарори билан тасдиқланган) мувофиқ ишлаб чиқилган	Амалий фан блоки бўйича давлат стандарти ва ўқув дастури орасида Жисмоний тарбия фанининг ўқув дастури Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 апрелдаги 187-сонли қарори билан тасдиқланган «Ўрта таълим (умумтаълим, умумтаълим умумий ўрта таълим) Давлат стандартига мувофиқ ишлаб чиқилиб, дастурнинг уқтириш хатида умумий ўрта таълим муассасаларида жисмоний тарбия фани, уни ўқитишнинг мақсади, шу жумладан, таълимий, тарбиявий, соғломлаштирувчи вазифалари ҳақида қисқача тушунчалар берилган.
Мазкур дастурда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида белгиланган Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида таълим муассасалари олдида қўйилган	Жисмоний тарбия фани таркибида "Саломатлик асослари", "Соғлом авлод асослари" ҳамда "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" ўқув курсларини синдириб ўқитилиши лозимлиги кўрсатилган. Шу билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги "Умумий ўрта таълим тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги 140-сонли

**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!**